MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, V-QISM



Milliy nashrlar


OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE.

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TAS STOKHOLM UNIVERSITETI

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА К INDUSTRY 5.0 9
Нигмонходжаев А. А.
ИНТЕГРАЛЬНЫЙ ИНДЕКС КАЧЕСТВА АКТИВОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С УЧЁТОМ СТАДИЙ МСФО (IFRS) 9 И КЛАССИФИКАЦИОННОГО РАЗРЫВА 15
Ю Вей
O‘ZBEKISTONNING 2026-YIL I YARIM YILLIGIDA ORGANIK SERTIFIKAT TALAB QILUVCHI MAMLAKATLARGA MEVA-SABZAVOT EKSPORTI 21
Shavqidinova Dilnavoz
INTERNATIONAL EXPERIENCE IN FINANCING FIXED CAPITAL INVESTMENT 26
Hasanova Nargiza Okilovna
THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF STATE PROGRAMS IN FINANCING FIXED CAPITAL INVESTMENT 34
Innaminova Naubakhar Sansizbayevna
SANOAT VA QURILISH TARMOQLARINING O‘ZARO INTEGRATSIYASI ASOSIDA HUDUDIY IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 41
Jo‘rayev Bobomurod Abdimuminovich
O‘ZBEKISTONDA JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA 8-SON MHXSNI QO‘LLASHNING USLUBIY MASALALARI 49
U. A. Shirinov
MINTAQALARDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI 55
Ko‘paysinov Behruz Xurshid o‘g‘li
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI QAMROV VA MULKCHILIKNING EKONOMETRIK TAHLILI 60
Shamsiyeva Yulduz Olimovna
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KONSALTING KOMPANIYALARIDA “SMART” BOSHQARUV TIZMLARINI JORIY ETISH MEXANIZIMLARI 65
Ermamatova Shohsanam Ermamat qizi
O‘ZBEKISTONDA TURISTIK OQIMNING HUDUDIY IQTISODIY NATIJALARGA TA’SIRINI BAHOLASH VA MAHALLIY DAROMADLAR HAMDA IQTISODIY MANFAATLAR TAHLILI 71
Mehrojbonu Ochilova
ИНТЕГРАЛЬНЫЙ ЦИФРОВОЙ ПОКАЗАТЕЛЬ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ: МЕТОДИКА РАСЧЁТА И РИСК-КЛАССИФИКАЦИЯ ЗАЁМЩИКОВ 77
Шахабутдинова Муаттар Зиятходжаевна
DAVLAT ISHTIROKIDAGI TRANSPORT KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGINING INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA’SIRINI BAHOLASH 84
Raxmatov Ziyodullo Nosirovich
INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARINI JORIY ETISH ASOSIDA TRANSPORT XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH 92
Kenjayeva Shaxnoza Muratovna
ISSIQLIK ALMASHINUVI QURILMALARINING GEOMETRIK SHAKLLARINI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ASOSIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH 96
Yo‘ldashev Solmonjon Iqboljon o‘g‘li
SUG‘URTA MUKOFOTI VA YILLIK TARIF KOEFFITSIYENTINI BASHORAT QILISHDA MASHINAVIY O‘QITISH ALGORITMLARINING QIYOSIY TAHLILI 102
Abdullayeva Umida Nurmuxammad qizi
МОДЕЛИРОВАНИЕ ФАКТОРОВ ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ НА МАЛЫХ ПАНЕЛЯХ ПРЕДПРИЯТИЙ ХОЛДИНГА: TOBIT-РЕГРЕССИЯ И БУТСТРЭП-ПРОВЕРКА ПО АЛГОРИТМУ СИМАРА — УИЛСОНА 111
Курбонова Маъмура Абдукари қизи

REAL VAQT REJIMIDAGI VIDEOKUZATUV TIZIMLARIDA OBYEKTLARNI ANIQLASH VA TANISHNING NEYRON TARMOQ USULLARI 119
Xolmatov Azizbek Tolibjonovich
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH: HOLAT, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR 123
Giyayev Rustamjon Abdurasulovich
МЕХАНИЗМ ИЗОЛЯЦИИ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОРТФЕЛЯ СТРАХОВОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ОТ ЛОКАЛЬНЫХ ШОКОВ 128
Камилова Севара Анваровна
РЕГУЛЯТОРНЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ОПЕРАЦИОННЫМИ РИСКАМИ АГЕНТНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УЗБЕКИСТАНЕ 137
Сагдуллаев Шукурулло Комил угли
O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI 142
Qorriyeva Shohnoza Saparboyevna
ФИЗИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЛЬТРАЗВУКОВОЙ ЗАТОЧКИ СПИРАЛЬНЫХ СВЁРЛ: МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЖУЩЕЙ КРОМКИ И ПРОГНОЗИРОВАНИЕ РАБОТОСПОСОБНОСТИ ОСЕВОГО ИНСТРУМЕНТА 150
Желтухин Андрей Владимирович, Сирожидинов Шамилидин Икромжонович
МЕТОДИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТАРИЙ ДИАГНОСТИКИ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА МАЛОГО ПРЕДПРИЯТИЯ: ИНДЕКС EPI И СПЕЦИФИКАЦИЯ ФАКТОРНОЙ МОДЕЛИ 159
Насридинова Шохида Тауфиковна
VOLFRAM TARKIBLI RUDALARNING DASTLABKI MINERALOGIK TARKIBI VA ZARRALAR O'LCHAMINING BOYITISH JARAYONLARINI TADQIQ ETISHDAGI AHAMIYATI 165
Xasanov Adham, Xasanov Abdirashid, Tolibov Behzod, Boymurodov Najmiddin
DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXIGA OID HISOB SIYOSATINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 171
Djumanov Saitmurod Alibekovich
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISHNING USLUBIY JIHATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 175
Boboqulov Akmal Muborakbekovich
AKT SOHASI AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QARZ MAJBURIYATLARINI IFRS 9 BO'YICHA KEYINGI BAHOLASH: SAMARALI STAVKA, MODIFIKATSIYA VA VALYUTA POZITSIYASI 180
Shanasirova Nodira Abdullayevna
ASSESSING THE IMPACT OF CULTURAL EVENTS AND TOURISM ACTIVITIES ON A COUNTRY'S INTERNATIONAL IMAGE: PORTFOLIO CONCENTRATION THRESHOLDS, ATTENTION CONVERSION EFFICIENCY, AND CORRIDOR EMBEDDEDNESS IN UZBEKISTAN'S EVENT SYSTEM 186
Gofurjonova Musharrafkhon Shekhratjon kizi
MODA MAHSULOTLARINI RAQAMLI BOZORLARDA ILGARI SURISHDA NARXGA SEZGIRLIK VA CHEGIRMA STRATEGIYALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH 197
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI PROGNOZLASH VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH 205
Nozimov Eldor, Nematullayev Shohjahon
INTERNATIONAL INTEGRATION OF UZBEKISTAN'S NATIONAL QUAL-ITY INFRASTRUCTURE IN 2023-2025: INSTITUTIONAL MECHANISMS AND PERFORMANCE ASSESSMENT SYSTEM 211
Orifboev Abdullakhon Asadullo ugli
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING INVESTITSION SALOHIYATINI EKONOMETRIK BAHOLASH 217
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna
СТРУКТУРА, УРОВЕНЬ И ПРАКТИКА ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНЫХ РИСКОВ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНОГО ОБЩЕСТВА 225
Назаров Баходир Бахтияр угли REAL SEKTOR KORXONALARINI KREDITLASHDA KREDIT REAL

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

SEKTOR KORXONALARINI KREDITLASHDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH 232
Anvarov Nozimjon Maxsudbek o‘g‘li
ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ, СТРУКТУРА КОЕЧНОГО ФОНДА И ДОСТУПНОСТЬ ПОМОЩИ КАК ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЫНКА МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ 236
Йулдошев Бекзод Алишерович
O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TA’MINLASHNING MILLIY XUSUSIYATLARI 244
Masaidova Marg‘uba Muratovna
AKTIVLAR SIFATINING TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY NATIJALARIGA TA’SIRI 251
Absamatov Asqar Ergashovich
QURILISH-PUDRAT ISHLARINING MAXSUS JIHATLARINI AUDIT QILISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH 262
Tulovov Erkinjon To‘lqin o‘g‘li
SANOAT KOOPERATSIYASI SHAROITIDA TEMIR YO‘L MASHINASOZLIGI KORXONALARINING IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV MEXANIZMLARI 265
Yuldasheva S.A
“UZAUTO MOTORS” AJDA KORPORATIV RISK-MENEJMENTNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI 271
Nazarov Baxodir Baxtiyar o‘g‘li
ICHKI AUDIT TIZIMI ORQALI BUDJET MABLAG‘LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA RISKKA ASOSLANGAN YONDASHUV 278
Nurmetov Nurmat Aminbayevich
OMMAVIY ISTE’MOLCHILAR QARZI BO‘YICHA KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARINI BAHOLASH: KO‘CHISH EHTIMOLLARI MATRITSASI VA RETROSPEKTIV SINOV 282
Suyunov Jaloliddin O‘ktam o‘g‘li
BOJSIZ OLIB KIRISH ME’YORLARI, SOLIQNI QAYTARISH (TAX FREE) VA CHEGARADAN OSHIB XARID QILISH: BOJXONA IMTIYOZLARINING TURISTIK XARAJATLARGA TA’SIR MEXANIZMI 287
Ergashev Qobiljon Ernazarovich
DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISHDA SOTUV MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH 292
Sanjarov Zuxriddin Dilshod o‘g‘li
«MAHALLA BANKIRI» TIZIMI ORQALI TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH, AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 298
Abdurahimov Bekmirzo Sagdullayevich
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ НА СОСТАВ, СТРУКТУРУ И ОПТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА 305
Курбонов Махмуджон Хусанбой угли
XORIJIY INVESTITSIYALAR ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH 310
Ilhom Muxtorov
“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AJ YUK TASHISH FAOLIYATINING SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARINI 2026–2035 YILLARGA PROGNOZLASH 320
Shakirova Farog‘at Boltayevna
TEZ O‘ZGARUVCHI OB-HAVO SHAROITIDA ISHLATILADIGAN TRANSPORT VOSITALARI KORPUS DETALLARINI KORROZIYADAN HIMOYA QILISH UCHUN POLIMER ASOSIDAGI QOPLAMALARNI 327
Ibragimov Botir, Tursunov Nodirjon
NEFT SANOATI QUVURLARIDA BOSIM O‘ZGARISHLARINI SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA PROGNOZLASH ALGORITMINI TAKOMILLASHTIRISH 333
Guliyev Alijon Abdulhakimovich
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH: INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUV 339
Abdukarimov Utkir Xamzayevich

QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHI: MAZMUN-MOHIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Zuvaydullayev Nematullo Oybek o‘g‘li
ISFT instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada qimmatli qog‘ozlar bozorining institutsional rivojlanishiga xos iqtisodiy mazmun, tarkibiy elementlar va nazariy asoslar institutsional iqtisodiyot, axborot assimetriyasi, moliyaviy vositachilik hamda korporativ boshqaruv konsepsiyalari asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotda tizimli, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilib, tartibga solish, savdo va hisob-kitob infratuzilmasi, investorlar bazasi, oshkoralik hamda bozor likvidligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik konseptual modelda birlashtirilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, institutsional rivojlanishni faqat bozor kapitallashuvi yoki savdo hajmi orqali baholash yetarli emasligi, institutsional sifatni ko‘p mezonli indikatorlar tizimi asosida baholash zarurligi asoslangan. Taklif etilgan jadval nazariy-sifat tahliliga asoslangan bo‘lib, statistik kuzatuv natijasi sifatida talqin qilinmaydi.

Kalit so‘zlar: qimmatli qog‘ozlar bozori, institutsional rivojlanish, moliyaviy infratuzilma, investorlar huquqlari, likvidlik, korporativ boshqaruv, axborot assimetriyasi.

Abstract. This article examines the economic essence, structural elements, and theoretical foundations of institutional development in securities markets through the concepts of institutional economics, information asymmetry, financial intermediation, and corporate governance. Using systemic, comparative, and logical analysis, the study develops a conceptual framework linking regulation, trading and settlement infrastructure, the investor base, transparency, and market liquidity. The findings demonstrate that market capitalisation and trading volume alone are insufficient to assess institutional development and that institutional quality requires evaluation through a multidimensional system of indicators. The accompanying table presents a conceptual and qualitative analytical framework rather than the results of statistical observations.

Keywords: securities market, institutional development, financial infrastructure, investor protection, liquidity, corporate governance, information asymmetry.

Аннотация. В статье исследуются экономическая сущность, структурные элементы и теоретические основы институционального развития рынка ценных бумаг с позиций институциональной экономики, информационной асимметрии, финансового посредничества и корпоративного управления. На основе системного, сравнительного и логического анализа предложена концептуальная модель взаимосвязи регулирования, торговой и расчётной инфраструктуры, инвесторской базы, прозрачности и рыночной ликвидности. Обосновано, что рыночная капитализация и объём торгов сами по себе не позволяют в полной мере оценить качество институтов; необходима многокритериальная оценка институционального развития. Представленная таблица носит концептуальный, теоретико-аналитический характер и не отражает результаты статистических наблюдений.

Ключевые слова: рынок ценных бумаг, институциональное развитие, финансовая инфраструктура, права инвесторов, ликвидность, корпоративное управление, информационная асимметрия.

KIRISH

Qimmatli qog‘ozlar bozori zamonaviy iqtisodiyotda jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantirish, kapitalni tarmoqlar va emitentlar o‘rtasida qayta taqsimlash, risklarni baholash hamda korporativ boshqaruvda bozor intizomini shakllantirishga xizmat qiladigan murakkab munosabatlar tizimidir. Uning rivojlanishini faqat aksiyalar va obligatsiyalar chiqarilishi, birja savdolari hajmi yoki ro‘yxatga olingan emitentlar sonining ko‘payishi bilan izohlash nazariy jihatdan cheklangan yondashuv hisoblanadi. Bozorning iqtisodiy samaradorligi unda amal qilayotgan qoidalar, mulk huquqlarining himoyasi, shartnomalarning ijro etilishi, axborot almashinuvi, savdodan keyingi hisob-kitoblar, nazorat mexanizmlari va investorlar ishonchi bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun institutsional rivojlanish bozor ko‘lamining oddiy o‘sishi emas, balki uning faoliyat sifatini belgilovchi rasmiy va norasmiy institutlarning izchil takomillashuvi sifatida qaralishi lozim (North, 1990).

Institutsional yondashuvning dolzarbligi kapital bozorida ishtirokchilar manfaatlarining turlicha ekanligi bilan belgilanadi. Emitent uzoq muddatli va nisbatan arzon moliyalashtirish manbalarini izlaydi; investor daromadlilik, likvidlik va huquqiy himoya o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladi; vositachilar axborot va operatsion xizmatlar ko‘rsatish orqali daromad oladi; tartibga soluvchi organ esa adolatli raqobat, shaffoflik va tizimli xatarlarni cheklashni ko‘zlaydi. Mazkur manfaatlarni uyg‘unlashtirish tegishli institutsional mexanizmlarni talab etadi. Agar korporativ axborot yetarlicha oshkor qilinmasa, investor riskni yuqori baholaydi; agar kliring va hisob-kitob tizimlarining ishonchliligi yetarli bo‘lmasa, tranzaksiya xarajatlari ortadi; agar minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, kapitalni jalb etish xarajatlari oshadi. Demak, bozorning institutsional sifati moliyaviy resurslarning real iqtisodiyotga yo‘naltirilishini belgilovchi mustaqil omildir.

Ilmiy adabiyotlarda institutlar iqtisodiy almashinuvni tartibga soluvchi qoidalar sifatida, tashkilotlar esa shu qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi subyektlar sifatida farqlanadi (North, 1990). Bu farq qimmatli qog‘ozlar bozorida ayniqsa muhim: fond birjasi, depozitariy yoki nazorat organining mavjudligi hali samarali institutlar shakllanganini anglatmaydi. Ularning vakolatlari aniq belgilangan, faoliyati muvofiqlashtirilgan, axborot va mulkiy huquqlar ishonchli himoyalangan hamda nizolar samarali hal qilinadigan sharoitdagina institutsional infratuzilma kapital taqsimotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotning maqsadi qimmatli qog‘ozlar bozorining institutsional rivojlanishi mohiyatini aniqlash, uning nazariy asoslarini tizimlashtirish va baholash uchun konseptual mezonlarni asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qimmatli qog‘ozlar bozorining institutsional rivojlanishi masalalari iqtisodiy adabiyotlarda institutsional iqtisodiyot, tranzaksiya xarajatlari nazariyasi, axborot assimetriyasi, korporativ boshqaruv, moliyaviy vositachilik va bozor mikrostrukturasi kabi ilmiy yo‘nalishlar doirasida keng tadqiq etilgan. Mazkur yondashuvlar kapital bozorining samarali faoliyat yuritishi nafaqat moliyaviy instrumentlar hajmi va savdo faolligiga, balki bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi institutlarning sifati, huquqiy mexanizmlarning samaradorligi va axborot muhitining ishonchliligiga ham bog‘liq ekanini nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Institutsional iqtisodiyotning yetakchi namoyandalaridan biri D. North (1990) o‘zining Institutions, Institutional Change and Economic Performance asarida institutlarni jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi rasmiy qoidalar hamda norasmiy cheklovlar tizimi sifatida izohlaydi. Olimning fikricha, institutlar iqtisodiy subyektlar faoliyatidagi noaniqlikni kamaytirish, o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish va tranzaksiya xarajatlariga ta’sir ko‘rsatish orqali iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini belgilaydi. Ushbu nazariy yondashuv qimmatli qog‘ozlar bozorida mulk huquqlarini himoya qilish, shartnomalar ijrosini ta’minlash, investorlar manfaatlarini muvofiqlashtirish va bozor ishtirokchilari o‘rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantirishning institutsional ahamiyatini tushuntirishga xizmat qiladi.

R. Coase (1937) The Nature of the Firm nomli ilmiy ishida iqtisodiy faoliyatni tashkil etishda tranzaksiya xarajatlarining muhim o‘rnini asoslab bergan. Uning yondashuviga ko‘ra, iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish jarayonida axborot izlash, muzokaralar olib borish, shartnomalar tuzish va ularning bajarilishini nazorat qilish bilan bog‘liq xarajatlar yuzaga keladi. O. Williamson (1985) esa The Economic Institutions of Capitalism asarida tranzaksiya xarajatlari nazariyasini rivojlantirib, shartnomaviy munosabatlar, iqtisodiy subyektlarning xatti-harakatlari va boshqaruv mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etgan. Mazkur ilmiy qarashlar qimmatli qog‘ozlar bozorida savdo, kliring, depozitariy va hisob-kitob tizimlarining samaradorligini baholash uchun nazariy asos yaratadi. Xususan, institutsional infratuzilmaning rivojlanishi bitimlarni amalga oshirish xarajatlarini kamaytirish, operatsion jarayonlarning ishonchliligini oshirish va kapital harakatini jadallashtirishga xizmat qilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-konseptual xususiyatga ega bo‘lib, unda institutsional iqtisodiyot, moliyaviy bozor mikrostrukturasi, agentlik munosabatlari va moliyaviy rivojlanishga oid ilmiy manbalar sintez qilindi. Tizimli tahlil yordamida bozorning tartibga solish, infratuzilma, emitentlar, investorlar va vositachilar bilan bog‘liq tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liq yagona tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Qiyosiy-nazariy usul North (1990), Coase (1937), Williamson (1985), Akerlof (1970), Jensen va Meckling (1976), Levine (1997) hamda La Porta va boshqalar

(1998) yondashuvlari o‘rtasidagi izchil aloqalarni ochib berishga xizmat qildi. Deduktiv usul orqali umumiy institutsional tamoyillardan qimmatli qog‘ozlar bozoriga xos baholash ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi.

Tahlil birliklari sifatida alohida emitent yoki mamlakat bo‘yicha kuzatilgan yillik statistik ma’lumotlar emas, balki institutlar va ular bajaradigan iqtisodiy funksiyalar tanlandi. Shuning uchun tadqiqot natijalari sabab-oqibat aloqalarining empirik isboti sifatida emas, balki nazariy jihatdan asoslangan, tekshirilishi mumkin bo‘lgan gipotezalar va operatsion mezonlar sifatida taqdim etiladi. Taklif etilayotgan institutsional sifat mezonlarini amaliy jihatdan tekshirish uchun keyingi tadqiqotlarda savdo ma’lumotlari, bid–ask spredi, hisob-kitoblarning muvaffaqiyatsizlik holatlari, axborotni oshkor etish intizomi, free float ko‘rsatkichi, investorlar tarkibi va sud-huquqiy ijro ko‘rsatkichlari asosida panel ma’lumotlar bazasini shakllantirish mumkin. Ushbu metodologik cheklovni aniq belgilash nazariy tahlil bilan statistik dalillar o‘rtasidagi chegarani saqlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy sintez natijasida qimmatli qog‘ozlar bozorining institutsional rivojlanishi “qoidalar – tashkilotlar – rag‘batlar – bozor natijalari” ketma-ketligi orqali tushuntirilishi aniqlandi. Coase (1937) tranzaksiya xarajatlarining iqtisodiy tashkilotlar shakllanishidagi o‘rnini ochib bergan bo‘lsa, Williamson (1985) shartnomalar, opportunistik xatti-harakatlar va boshqaruv tuzilmalari o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tahlil qilgan. Ushbu nazariyalar kapital bozorida brokerlik komissiyasi yoki birja yig‘imi bilangina cheklanmaydigan xarajatlarni — emitentni tekshirish, axborotni tasdiqlash, shartnomani himoya qilish, hisob-kitob tavakkalchiligini qoplash va nizolarni hal etish xarajatlarini — hisobga olishni talab qiladi. Rivojlangan institutlar ushbu xarajatlarni kamaytirib, bozorga kirish va kapital jalb etish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Ikkinchi nazariy yo‘nalish axborot assimetriyasi bilan bog‘liq. Akerlof (1970) sifati to‘liq kuzatilmaydigan bozorlarda salbiy tanlov yuzaga kelishini ko‘rsatgan. Qimmatli qog‘ozlar bozorida bu holat emitentning moliyaviy holati va istiqbollari haqida ichki axborotga egaligi, investor esa cheklangan ma’lumotlar asosida qaror qabul qilishi bilan namoyon bo‘ladi. Axborot oshkoraligi, mustaqil audit, listing talablari va korporativ hisobot standartlari mazkur nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi. Biroq rasmiy talablarning o‘zi yetarli emas: oshkor qilingan ma’lumotlarning ishonchliligi, o‘z vaqtida taqdim etilishi va qoidabuzarliklar uchun javobgarlik mexanizmlari ham muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, oshkoralik instituti faqat hisobot e’lon qilish majburiyati emas, balki narx shakllanishiga xizmat qiladigan ishonchli axborot muhiti sifatida talqin etilishi kerak.

Uchinchi yo‘nalish korporativ boshqaruv va investorlar huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq. Jensen va Meckling (1976) tomonidan ko‘rsatib berilgan agentlik muammosi mulkdorlar va boshqaruvchilar manfaatlari o‘rtasidagi tafovutdan kelib chiqadi. Kapital bozorida bunga nazorat paketi egalarining minoritar investorlar manfaatlariga zid ravishda xususiy manfaatlarni ustun qo‘yishi xavfi ham qo‘shiladi. La Porta va boshqalar (1998) investorlar huquqlarini himoya qilish va moliyaviy tizim rivojlanishi o‘rtasidagi institutsional aloqalarni tadqiq qilgan. Shu bois aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining amaldagi vakolatlari, manfaatdorlik mavjud bo‘lgan bitimlar ustidan nazorat, mustaqil direktorlar faoliyati va huquqlarni himoya qilish vositalari bozor rivojlanishining muhim tarkibiy shartlaridir. OECD (2023) tamoyillari korporativ boshqaruvni barqarorlik va kapitaldan foydalanish imkoniyatlari bilan bog‘laydi.

To‘rtinchi yo‘nalish bozor mikrostrukturasi va savdodan keyingi infratuzilma bilan bog‘liq. Qimmatli qog‘ozning huquqiy jihatdan mavjudligi uning ikkilamchi bozorda tez va maqbul xarajatlar bilan sotilishini kafolatlamaydi. Likvidlik savdo buyurtmalarining chuqurligi, narxlar o‘rtasidagi tafovut, savdo uzluksizligi, investorlar xilma-xilligi hamda kliring va hisob-kitoblarning ishonchliligiga bog‘liq. Kyle (1985) va O’Hara (1995) tadqiqotlari savdo mexanizmlari va axborotning narxlarda aks etishi masalalarini tushuntirishga yordam beradi. Depozitariy hisobining aniqligi, aktivlarni alohida saqlash, operatsion uzilishlarga chidamlilik va bitimlar bo‘yicha hisob-kitoblarning yakuniyligi institutsional sifatning kamroq ko‘zga tashlanadigan, biroq fundamental jihatlaridir.

Beshinchi yo‘nalish moliyaviy rivojlanishning makroiqtisodiy funksiyasiga taalluqlidir. Levine (1997) moliyaviy tizimning jamg‘armalarni safarbar etish, investitsiyalarni tanlash, risklarni boshqarish va korporativ nazoratni amalga oshirishdagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatadi. Beck, Levine va Loayza (2000) moliyaviy vositachilik bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi aloqalarni empirik jihatdan tadqiq qilgan. Biroq institutsional rivojlanishning barcha bosqichlari avtomatik ravishda barqarorlikni oshiradi, degan xulosa asosli emas: yuqori savdo faolligi konsentratsiya, spekulyativ pozitsiyalar va protsiklik risklar bilan birga kechishi mumkin. Shu sababli bozor chuqurligini oshirish investorlar huquqlarini himoya qilish va tizimli risklarni kuzatish bilan uyg‘unlashtirilishi zarur. IOSCO (2017) standartlari investorlarni himoya qilish, adolatli, samarali va shaffof bozorlarni ta’minlash hamda tizimli risklarni kamaytirishni asosiy maqsadlar sifatida belgilaydi (1-jadval).

1-jadval

Qimmatli qog‘ozlar bozori institutsional rivojlanishining konseptual baholash mezonlari[1]

Institutsional yo‘nalish	Mazmuni va asosiy mexanizmi	Taklif etiladigan indikator	Kutiladigan natija
Huquqiy tartibga solish	Mulk huquqi, nazorat, nizolarni hal etish	Ijro intizomi; sanksiya va nizolar samaradorligi	Ishonch va huquqiy aniqlik
Axborot shaffofligi	Oshkor etish, audit, korporativ hisobot	O‘z vaqtida e’lon qilingan hisobotlar ulushi	Axborot assimetriyasi pasayishi
Savdo infratuzilmasi	Birja mexanizmi va narx kashfiyoti	Bid–ask spred; aylanish koeffitsiyenti	Likvidlik va narx sifati
Post-trade tizimi	Kliring, depozitariy, hisob-kitob	Hisob-kitob muvaffaqiyatsizligi ulushi	Operatsion risk kamayishi
Investorlar bazasi	Institutsional va chakana investorlar xilma-xilligi	Investor turlari va konsentratsiyasi	Talab barqarorligi
Korporativ boshqaruv	Minoritar huquqlar va agentlik nazorati	Free float; boshqaruv oshkoraligi	Kapital qiymati pasayishi
Risk nazorati	Bozor suiiste’mollari va tizimli risk monitoringi	Nazorat qamrovi; konsentratsiya	Moliyaviy chidamlilik

Jadval tahlili institutsional rivojlanishni o‘zaro to‘ldiruvchi, biroq bir-birini to‘liq almashtira olmaydigan yo‘nalishlar majmui sifatida tushuntiradi. Masalan, birja savdo tizimi texnologik jihatdan rivojlangan bo‘lsa-da, emitentlar to‘g‘risidagi axborotning ishonchliligi yetarli bo‘lmasa, narxlar fundamental qiymatni to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Aksincha, huquqiy talablar puxta ishlab chiqilgan bo‘lsa-yu, investorlar bazasi tor va ikkilamchi savdo faolligi past bo‘lsa, investorning qimmatli qog‘ozni maqbul vaqtda sotish imkoniyati cheklanadi. Hisob-kitob mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi esa savdo bosqichida shakllangan ishonchning bitim yakunida pasayishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, institutsional sifatning iqtisodiy ta’siri tizimdagi eng kam rivojlangan bo‘g‘in bilan cheklanishi ehtimoli yuqori.

Nazariy jihatdan institutsional rivojlanishni baholashda besh o‘lchovli mantiqiy modelni ajratish mumkin: tartibga solish va ijro sifati, infratuzilma ishonchliligi, investorlar bazasining xilma-xilligi, likvidlik va narx shakllanishi, risklarni cheklash qobiliyati. Har bir yo‘nalish bo‘yicha indikatorlar normallashtirilgach, ularni umumlashtiruvchi indeksni shakllantirish mumkin. Biroq vaznlarni ekspert baholari asosida belgilash natijalarning subyektivlik darajasini oshirishi mumkin. Shu bois keyingi empirik tadqiqotlarda teng vaznli indeks, asosiy komponentlar usuli va sezgirlik tahlili natijalarini qiyoslash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, kapitallashuv va savdo hajmi ko‘rsatkichlarini sifat indikatorlari bilan birlashtirishdan avval ularning takroriy axborot berish ehtimolini tekshirish talab etiladi.

O‘zbekiston kabi kapital bozori transformatsiyasi davom etayotgan iqtisodiyotlarda ushbu nazariy yondashuv amaliy ahamiyat kasb etadi. Bozorni rivojlantirish strategiyasi bir vaqtning o‘zida sifatli emitentlar taklifini ko‘paytirish, investorlar huquqlarini amalda himoya qilish, ochiq ma’lumotlarni standartlashtirish, ishonchli savdo va hisob-kitob tizimlarini shakllantirish hamda professional vositachilar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirishni ko‘zda tutishi kerak. Xususiylashtirish jarayonlarining kengayishi yoki yangi emissiyalar sonining ortishi o‘z-o‘zidan chuqur rivojlangan bozor shakllanganini anglatmaydi; buning uchun erkin muomaladagi ulush, takroriy savdo faolligi, investorlar ishonchi va boshqaruv sifati ham yaxshilanishi lozim. Mazkur mulohazalar O‘zbekiston bozoriga oid alohida statistik natijalar emas, balki institutsional islohotlarni baholash uchun nazariy mezonlar sifatida ilgari suriladi.

Tadqiqotning nazariy natijasi shundan iboratki, institutsional rivojlanishning mazmuni tashkilotlar soni yoki normativ-huquqiy hujjatlar ko‘pligi bilan emas, balki institutlarning iqtisodiy funksiyalarni qay darajada samarali bajarishi bilan belgilanadi. Samarali institutlar axborot nomutanosibligini kamaytiradi, agentlik xarajatlarini cheklaydi, bitimlar ijrosining ishonchliligini oshiradi va kapitalning narx mexanizmi orqali taqsimlanishini yaxshilaydi. Biroq ushbu ta’sir bozor tuzilmasi, makroiqtisodiy sharoitlar va islohotlar ketma-ketligiga bog‘liq bo‘lganligi sababli uni yagona universal koeffitsiyent orqali ifodalash ilmiy jihatdan asosli emas. Kelgusida nazariy modelni real kuzatuvlar asosida sinovdan o‘tkazish va turli institutsional komponentlarning nisbiy ta’sirini aniqlash zarur.

1 Muallif ishlanmasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy tadqiqot qimmatli qog‘ozlar bozorining institutsional rivojlanishi moliyaviy munosabatlarni tashkil etuvchi rasmiy qoidalar, norasmiy me’yorlar, bozor tashkilotlari va ularning o‘zaro muvofiqlashuvi sifat jihatidan takomillashib boradigan ko‘p qatlamli jarayon ekanini ko‘rsatdi. Mazkur jarayonning iqtisodiy mohiyati investorlar va emitentlar o‘rtasidagi almashinuv xarajatlarini kamaytirish, axborot assimetriyasini pasaytirish, mulkiy huquqlarni ishonchli himoya qilish, narx shakllanishi mexanizmini takomillashtirish va bozorning shoklarga chidamliligini kuchaytirishda namoyon bo‘ladi. Institutsional iqtisodiyot, agentlik nazariyasi, axborot iqtisodiyoti va moliyaviy bozor mikrostrukturasi yondashuvlari bir-birini to‘ldirib, kapital bozori rivojlanishini tushuntirishning yagona nazariy asosini shakllantiradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish darajasini faqat bozor kapitallashuvi, listingdagi kompaniyalar soni yoki bitimlar hajmi orqali baholash ilmiy jihatdan yetarli emas. Tartibga solish mexanizmlarining ijro sifati, axborot oshkoraligi, savdodan keyingi infratuzilma, investorlar tarkibi, likvidlik va korporativ boshqaruv ko‘rsatkichlarini birgalikda baholash zarur. Taklif etilgan konseptual jadval aynan shu vazifaga xizmat qiladi. Amaliy siyosat nuqtayi nazaridan islohotlar alohida institutlarni rasmiy jihatdan tashkil etish bilangina cheklanmasdan, ularning o‘zaro muvofiqligi, javobgarligi va natijadorligini oshirishga qaratilishi lozim. Keyingi ilmiy izlanishlarda ushbu mezonlar asosida tekshiriladigan indikatorlar bazasini shakllantirish, institutsional sifat va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik baholash hamda sababiylikni tekshirish tavsiya etiladi.

Shu munosabat bilan qimmatli qog‘ozlar bozorining institutsional rivojlanishini jadallashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Institutsional tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. Qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilash, tartibga soluvchi organlar hamda bozor infratuzilmasi tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining amaliy samaradorligini oshirish zarur.

2. Axborot oshkoraligi va korporativ boshqaruv sifatini oshirish. Emitentlarning moliyaviy va korporativ axborotlarini o‘z vaqtida, to‘liq va ishonchli oshkor etish amaliyotini rivojlantirish, korporativ boshqaruv standartlariga rioya etilishini kuchaytirish hamda minoritar aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu investorlar ishonchini mustahkamlash va axborot assimetriyasini kamaytirishga xizmat qiladi.

3. Bozor infratuzilmasi va likvidlikni rivojlantirish. Savdo, kliring, depozitariy va hisob-kitob tizimlarining texnologik hamda operatsion ishonchliligini oshirish, investorlar bazasini kengaytirish va ikkilamchi bozordagi savdo faolligini rag‘batlantirish muhim hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishdagi chora-tadbirlar tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, narx shakllanishi samaradorligini oshirish va kapital bozorining investitsion jozibadorligini mustahkamlash imkonini beradi.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda ushbu mezonlar asosida tekshiriladigan indikatorlar bazasini shakllantirish, institutsional sifat va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik baholash hamda sababiylikni tekshirish tavsiya etiladi. Xususan, institutsional rivojlanishning alohida tarkibiy qismlari bozor likvidligi, investorlar faolligi va kapital jalb etish samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini empirik ma’lumotlar asosida o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar nazariy jihatdan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlarni amaliy baholash mexanizmlari bilan bog‘lash hamda qimmatli qog‘ozlar bozorini izchil rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akerlof G. A. The Market for “Lemons”: Quality Uncertainty and the Market Mechanism / G. A. Akerlof // The Quarterly Journal of Economics. – 1970. – Vol. 84, № 3. – P. 488–500.
2. Beck T., Levine R., Loayza N. Finance and the Sources of Growth / T. Beck, R. Levine, N. Loayza // Journal of Financial Economics. – 2000. – Vol. 58, № 1–2. – P. 261–300.
3. Coase R. H. The Nature of the Firm / R. H. Coase // Economica. – 1937. – Vol. 4, № 16. – P. 386–405.
4. Demirgüç-Kunt A., Levine R. (eds.). Financial Structure and Economic Growth: A Cross-Country Comparison of Banks, Markets, and Development / ed. by A. Demirgüç-Kunt, R. Levine. – Cambridge, MA: MIT Press, 2001.
5. Fama E. F. Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work / E. F. Fama // The Journal of Finance. – 1970. – Vol. 25, № 2. – P. 383–417.
6. International Organization of Securities Commissions (IOSCO). Objectives and Principles of Securities Regulation [Elektron resurs]. – Madrid: IOSCO, 2017. – URL: https://www.fsb.org/2017/05/cos_100601/ (murojaat qilingan sana: 2026.10.31).

7. Jensen M. C., Meckling W. H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure / M. C. Jensen, W. H. Meckling // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3, № 4. – P. 305–360.
8. Kyle A. S. Continuous Auctions and Insider Trading / A. S. Kyle // Econometrica. – 1985. – Vol. 53, № 6. – P. 1315–1335.
9. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R. W. Law and Finance / R. La Porta, F. Lopez-de-Silanes, A. Shleifer, R. W. Vishny // Journal of Political Economy. – 1998. – Vol. 106, № 6. – P. 1113–1155.
10. Levine R. Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda / R. Levine // Journal of Economic Literature. – 1997. – Vol. 35, № 2. – P. 688–726.
11. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance / D. C. North. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
12. O'Hara M. Market Microstructure Theory / M. O'Hara. – Cambridge, MA: Blackwell, 1995.
13. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023 [Elektron resurs]. – Paris: OECD Publishing, 2023. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/g20-oecd-principles-of-corporate-governance-2023_ed750b30-en.html (murojaat qilingan sana: 2026.10.31).
14. Shleifer A., Vishny R. W. A Survey of Corporate Governance / A. Shleifer, R. W. Vishny // The Journal of Finance. – 1997. – Vol. 52, № 2. – P. 737–783.
15. Williamson O. E. The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting / O. E. Williamson. – New York: Free Press, 1985.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100